

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XALILOV DONIYOR ABDULAZZAT O‘G‘LI

**JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Xalilov Doniyor Abdulazzat o‘g‘li

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini
takomillashtirish 5

Халилов Дониёр Абдулаззат угли

Совершенствование института условного освобождения от отбывания
наказания..... 21

Khalilov Doniyor Abdulazzat ogli

Improving the institution of parole 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

XALILOV DONIYOR ABDULAZZAT O‘G‘LI

**JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH
INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1083 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Usmonov Doniyor Maxmudovich**
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Kabulov Rustam**
yuridik fanlar doktori, professor

Niyozova Salomat Saparovna
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 7-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1542-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 25-apreldagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo jinoiy-huquqiy siyosatida sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkumni jazoni o'tashdan ozod qilish jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri sifatida qaraladi. Boisi, ushbu tartib mahkumlarning axloqini tuzatishga undaydigan hamda ijtimoiylashuvini ta'minlovchi eng samarali mexanizmlardan hisoblanadi. Shu asosda, jazoni o'tashdan ozod qilish qoidalari Yevropa Kengashi vazirlar qo'mitasining "Muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risida"gi tavsiyalari¹ hamda har bir davlatning milliy qonun hujjatlarida belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "2022-yilda jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar orasidan AQShda 33,8 foiz, Rossiyada 5,8 foiz va Kanadada 5,1 foizi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, mazkur ko'rsatkich har yili 7,3 foizga qadar ortib bormoqda"². Bu mahkumlarning huquqiy holatini yengillashtirish hamda jazoning maqsadlariga erishish samaradorligini ortishiga xizmat qiladigan ushbu institutni yanada rivojlantirish borasidagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari ilmiy tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylangan. Bu boradagi, ayniqsa, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmlarini yaratish hamda ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning axloqini tuzatish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda taqiq va majburiyatlarni belgilash, shuningdek, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida mahkumlarning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish siyosati izchil davom ettirilmoqda. Mamlakatimizda har yili "Inson qadri uchun" prinsipi asosida 26 mingdan ortiq mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinadi³. Ammo, shunga qaramasdan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumlar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari ortib bormoqda, jumladan, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 4,4 foizga oshib, 113 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 10 oyida 22,9 foizga oshib, 140 ta jinoyat sodir etilgan⁴. Bu esa, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning asosi va shartlarini takomillashtirish hamda shartli ravishda ozod qilingan mahkumlar zimmasiga taqiqlar (cheklovlar) va majburiyatlar yuklashning zarurligini tadqiq etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

¹ URL:<https://rm.coe.int/16806f411b> (elektron manbaga murojaat qilingan vaqt:12.04.2024 y.).

² URL:<https://www.statista.com/search/?q=parole&p=1> (elektron manbaga murojaat qilingan vaqt:12.11.2024 y.).

³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди жиноят ишлари бўйича судларнинг 2018-2022 йиллар ҳамда 2023 йил асосий кўрсаткичлари // URL:<https://stat.sud.uz/> (elektron manbaga murojaat qilingan vaqt:12.08.2024 y.).

⁴ O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazining 2024-yil 29-noyabrda №3537-sonli ma'lumoti.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (2024), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022), ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonlari, “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (2018) va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga oid jinoiy-huquqiy normalarni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishning ayrim jihatlari Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, Z.S. Zaripov, I. Ismailov, R. Kabulov, Q. Mirzajanov, E.X. Norbutayev, A.A. Otajonov, Y.S. Pulatov, M.A. Rajabova, A.K. Rasulev, M.X. Rustambayev, N.S. Salayev, F. Taxirov, D.M. Usmonov, M. Usmonaliyev, U.SH. Xoliqulov, R.R. Shakurov, G‘.O. Ermatov, A.S. Yakubovlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o‘rganilgan.

M. Usmonaliyev va G‘.O. Ermatovlar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha tadqiq etganlar. R. Kabulov, A.A. Otajonov, M.X. Rustambayev, F. Taxirov, U.SH. Xoliqulov, A.S. Yakubovlar esa mazkur institutning yuridik tabiati, tushunchasi va maqsadini o‘rganganlar.

Shuningdek, Q.R. Abdurasulova, N.S. Salayev va T.X. Fayzullayeva jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash asoslarini, S.S. Niyozova hamda Q.P. Payzullayev jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishdagi qoidalarni, D.A. Tadjibayeva, M.SH. Yuldashev jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar xulq-atvori ustidan nazorat olib borishni, Sh. Berdiyev esa jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish masalalarini o‘rganganlar.

Xorijlik olimlar: N.A. Belyayev, S.K. Gogel, M.A. Yefimov, A.A. Piontkovskiy, N.S. Tagansev, V.M. Trubnikovlar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mohiyati va yuridik tabiatini, I.I. Yevtushenko, A.M. Nosenko, S.Y. Ulitskiy jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasini, S.L. Babayan, S.G. Barsukova, Y.T. Borisov, D.V. Kaznacheyeva, I.D. Perlov, Y.M. Tkachevskiy jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning maqsadini, I.M. Agzamov, Y.A. Veretina, I.Z. Galiullin, E.V. Kaburneyev,

N.G. Kadnikov, A.V. Naumov jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda belgilanadigan muddatni, V.S. Komissarov jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganlarning xulq-atvori ustidan nazoratni, I. Durnesku, V.I. Seliverstov, T. Sharipov jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda yuklatiladigan taqiq va majburiyatlarni, Y.V. Gracheyeva, A.V. Kladkov, V.V. Makarova jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashga monelik qiladigan holatlarni tadqiq etganlar.

Biroq, ushbu tadqiqotlarda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning muayyan jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu institutning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlarni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan alohida kompleks tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" (13-bandi) (2022-2025-y.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishining loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining nazariy, huquqiy hamda amaliy jihatlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning asos va shartlarini va uning qo'llanish amaliyotini tahlil qilish asosida mualliflik ta'rifini ishlab chiqish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy jihatlarni o'rganish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash zarurati va uning samaradorligini tahlil qilib, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash va bekor qilishning jinoyat-huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda mahkum tomonidan haqiqatda o'tash kerak bo'lgan jazo muddatini toifalar bo'yicha belgilash va bu asosda taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid xalqaro standartlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish, umumlashtirish va ularning ilg'or tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmetini jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga oid jinoyat qonunchiligi normalari, nazariy qarashlar, g'oyalar va ularni qo'llash amaliyotidagi muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusiga oid masalalarni o'rganishda umumlashtirish, deduksiya va induksiya, tahlil va sintez, tizimli yondashuv,

tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, statistik ma'lumotlar tahlili kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chog'ida sud asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, mahkumning zimmasiga ishga yoki o'qishga joylashish, muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarganligi haqida uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organga xabar berish, muayyan joylarga bormaslik, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tash, O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqmaslik majburiyatlarini yuklatishi asoslantirilgan;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni ichki ishlar organlari amalga oshirishi asoslantirilgan;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organning taqdimnomasiga binoan sud ilgari ushbu shaxsning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bekor qilishi yoxud uning zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklatishi asoslantirilgan;

agar jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs sud tomonidan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni o'talmagan jazo muddati davomida bajarmasa, sud uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organning taqdimnomasiga binoan uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish va o'talmagan jazo muddatini o'tashi haqidagi masalani ko'rib chiqish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda mahkum eng kam o'talishi lozim bo'lgan muddatni olti oy etib belgilash hamda ushbu institutni mahkumga qo'llashda sud tayinlangan umumiy muddatdan kelib chiqib hisoblash zarurligi asoslantirilgan;

voyaga yetmagan shaxslarning jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qoidasidagi asoslardan biri mehnat bilan bog'liq qoidani chiqarib tashlashni, asosiy urg'uni o'qishga qaratish zarurligi asoslantirilgan;

voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo turlaridan majburiy jamoat ishlari jazosidan ham muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mumkinligi to'g'risidagi qoidani qonunchilikka kiritish zarurligi asoslantirilgan;

mahkumlarni tabaqalashtirgan holda ularning haqiqatda o'talishi lozim bo'lgan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish muddatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning jazoning o'talmagan qismi davomida xulq-atvori ustidan nazorat qilishning samaradorligiga erishish uchun taqiq (cheklash) yoki majburiyatlarni belgilash zarurligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribalar, sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan, dissertatsiyada

353 nafar jazoni ijro etish muassasasi, probatsiya va profilaktika xizmati inspektorlari, 30 nafar prokuratura va advokatura, 30 nafar ilmiy-pedagog xodimlar hamda 523 nafar mahkumlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov tahlillari, shuningdek, 521 ta sud ajrimi o'rganilib, natijalari umumlashtirilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 2022-yil 7-mayda "Mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni takomillashtirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish belgilangan normalar va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, tegishli qonun normalarini sharhlashda, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, kelgusida ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sud amaliyotida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash faoliyatini takomillashtirishga, shuningdek, qonun normalarining bir xilda qo'llanilishiga, sohaga oid qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga oid jinoyat-huquqiy normalarni, ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chog'ida sud asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, mahkumning zimmasiga ishga yoki o'qishga joylashish, muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgariganligi haqida uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ (ichki ishlar organlari, harbiy qismlar yoki muassasalarning qo'mondonligi)ga xabar berish, muayyan joylarga bormaslik, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tash, O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqmaslik majburiyatlarini yuklatish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi "Probatsiya to'g'risida"gi 938-son Qonunining 71-moddasi 1-bandi 3-kichik bandi 6-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 14-oktabrdagi 3/08-199-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilganligi mahkumlarning qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish hamda ularni axloqan tuzatish bo'yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni ichki ishlar organlari amalga oshirishi lozimligi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi "Probatsiya to'g'risida"gi 938-son Qonunining 71-moddasi 1-bandi 3-kichik bandi 7-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 14-oktyabrdagi 3/08-199-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilganligi mahkumlarning huquqlariga rioya etish, ularni kelgusida jamiyatga ijtimoiy moslashtirishda ko'maklashishga xizmat qilgan;

jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organning taqdimnomasiga binoan sud ilgari ushbu shaxsning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bekor qilishi yoxud

uning zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklatishi mumkinligi taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi 938-son Qonunining 71-moddasi 1-bandi 3-kichik bandi 8-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 14-oktyabrdagi 3/08-199-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilganligi mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta‘minlash, qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qilgan;

agar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs sud tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni o‘talmagan jazo muddati davomida bajarmasa, sud uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organning taqdimnomasiga binoan uni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish va o‘talmagan jazo muddatini o‘tashi haqidagi masalani ko‘rib chiqish lozimligi taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi 938-son Qonunining 71-moddasi 1-bandi 3-kichik bandi 10-xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2024-yil 14-oktyabrdagi 3/08-199-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifni joriy etilganligi mahkumlarning huquqlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularda qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda 6 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta va ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasi, mohiyati va uni ilmiy tahlil qilish zarurati**” deb

nomlangan bo‘lib, unda tadqiqot mavzusiga doir tushunchalarning tahlili va ularning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, “Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish” tushunchasining nazariy-huquqiy jihatlari, uning shakllanishi va rivojlanishi, uni qo‘llash zarurati va samaradorligi tahlil qilingan. Olimlar tomonidan mavzuga oid ilgari surilgan bahsli fikr va mulohazalar tahlil etilib, ularga nisbatan munosabat bildirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy tahlili*” deb nomlanib, unda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining rivojlanish tendensiyalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, shakllanish bosqichlarini o‘zbek davlatchiligining tadrijiy rivojlanish tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rgangan:

birinchi bosqich – jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qoidalar zardushtiylik davrining (miloddan avvalgi VII-VI asrdan milodiy VIII asrgacha) asosiy huquqiy manbasi bo‘lgan “Avesto” asosida tartibga solingan;

ikkinchi bosqich – shariat normalari amal qilgan davrda (VIII-XIX asrning ikkinchi yarmigacha) mahkumlarga jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash uchun ular axloqan tuzalganligini isbotlashi lozim bo‘lgan;

uchinchi bosqich – chor Rossiyasi hukmronligi davrida (1867-1917-yillar) hozirgi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining nazariy asoslari shakllana boshlagan;

to‘rtinchi bosqich – sobiq Ittifoq tuzumi davrida (1917-1991-yillar) jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qonun darajasida qo‘llashning asos hamda shartlari belgilab olingan;

beshinchi bosqich – O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik (1991-yildan hozirga qadar) davrini qamrab olib, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti mahkumlarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ularning tuzalish yo‘liga o‘tishini ta’minlash hamda ijtimoiylashuvini jadallashtirish orqali takomillashib borilishi aks ettirilgan.

Muallif jinoyat qonunchiligidagi islohotlar natijasida, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 73-moddasi (bundan keyin matnda JK deb yuritiladi)) tarkibidan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (JK 74-m.) va kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-m.) normalari alohida institut sifatida ajratilganligini ta’kidlagan.

Bundan tashqari, dissertant hozirgi kundagi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining huquqiy asoslari Avstriyada (XVIII-asr) shakllanganligini, keyinchalik mazkur institut AQSH (1850-yil), Daniya (1873-yil), Vengriya (1878-yil), Yaponiya (1882-yil), Fransiya (1885-yil), Bolgariya (1886-yil), Belgiya (1888-yil), Italiya (1889-yil), Portugaliya (1893-yil) va Shvetsiya (1906-yil) kabi davlatlarda yaratilganligini, ularning bu sohadagi ayrim tajribalari o‘rganganligini qayd etgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasi, mohiyati va uning nazariy-huquqiy jihatlari tahlil qilish zarurati*” deb nomlangan bo‘lib, unda tadqiqotchi tomonidan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazoning qaysi bosqichi ekanligini, uning asos

va shartlari, yuridik tabiati, shuningdek, uni jazoni o'tashdan ozod qilish turlari va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir chorasi bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlari yoritilgan.

Tadqiqotchi tomonidan mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan qoidalar jazoni o'tash tartibi va shartlari bilan birlashib ketganligi, shu bilan birga mazkur institutni mahkumlarga qo'llashda jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlarining unifikatsiya qilinmaganligi muammo sifatida ko'rsatilgan.

Dissertant JK 73-moddasiga tuzalish yo'liga o'tganligi to'g'risida insonparvarlik komissiyasining xulosasi mavjud bo'lgan mahkumga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish lozimligini taklif etgan.

Tadqiqot natijasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning quyidagi funksiyalari ishlab chiqilgan:

iqtisodiy jihatdan – mahkumlarga sarflanadigan moliyaviy xarajatlarni qisqartirishga xizmat qilish orqali davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni tejash va ularni boshqa ijtimoiy sohalarga sarflash imkonini beradi;

siyosiy jihatdan – davlat jamiyat oldida o'zining ijtimoiy adolat va insonparvarlik prinsiplariga sodiqligini namoyon qilish orqali jamiyatning davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi;

tarbiyaviy jihatdan – jazo o'tayotgan mahkumlarning ongini o'zgartirish orqali ularni jazo turiga o'rnatilgan tartib-qoida asosida tarbiyalash va kelgusida huquqbuzarliklarni sodir etmaslikka undaydi;

profilaktik jihatdan – ijtimoiy moslashtirish jarayoni hisoblanib, mahkumlarni jamiyatga moslashtirishda ko'maklashadi;

mafkuraviy jihatdan – davlat manfaatlari va maqsadlarini ifodalovchi g'oyalar orqali insonparvarlik, adolat va qonun ustuvorligi kabi asosiy qadriyatlar targ'ib etiladi.

Dissertant tomonidan huquq nazariyasida "jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish" tushunchasi borasida olimlar N.S. Tagansev davlatning jazolash faoliyati va shu bilan birga sud hukmiga o'zgartirish kiritish, A.A. Piontkovskiy jazo tizimining bir qismi sifatida hamda bu jazo ta'sirining yakuniy to'xtatishga qaratilgan o'tish bosqichi, S.K. Gogel mahkumlarni axloqan tuzatish uchun ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakat, E.O. Turgunboyev jazoni o'tashni muddatidan oldin to'xtatilishi kabi fikrlari tahlil qilinib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Xususan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasiga ta'rif berishda, *birinchidan*, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish shartli kechirish emasligi; *ikkinchidan*, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tayinlangan jazo bilan uzviy bog'liqligi; *uchinchidan*, huquqning uchta tarmog'i, ya'ni jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya huquqining murakkab instituti hisoblanishi; *to'rtinchidan*, uning mohiyati va axloqan tuzalganligi kabi zaruriy belgilar mavjudligiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi olimlarning fikrlari hamda ayrim xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning yuridik tabiatini o'rganib, ya'ni jazoni o'tashdan ozod etishning bir turi sifatida sud tomonidan

tayinlangan jazoni o'tash vaqtida uning sharti bajarilgan hamda asoslar yetarli bo'lganda hukmning ijrosini tugatishdan iborat degan xulosaga kelgan.

Dissertant jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining ijobiy samarasi haqida huquqshunos olimlarning N.A Belyayev, M.A. Yefimov jazoni o'tash usullaridan biri va ozodlikdan mahrum qilish jarayonining yakuniy qismi, A.A. Piontkovskiy hukmni o'zgartirish va jazo muddatini qisqartirishning maxsus shakli, A.F. Siziyl mahkumning subyektiv huquqi, ya'ni bu shaxsning qonunda nazarda tutilgan maqsadlariga erishish va manfaatlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlar degan qarashlariga asoslanib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining ijobiy samarasi, eng avvalo, majburlash va ishontirish usulini o'z ichiga oladi va shu orqali insonparvarlik prinsipini ifodalaydi, shu bilan birga mahkumning subyektiv huquqi bo'lib, uni axloqan tuzalganligi uchun rag'batlantirish oladi degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyaning **“Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning jinoyat-huquqiy tahlili”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy asoslari va shartlari tahlili, shartli ozod qilingan shaxslar xulq-atvori ustidan nazorat qilish samaradorligini oshirish choralarini tadqiq etgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy asoslari va shartlari tahlili”* deb nomlanib, mazkur paragrafda tadqiqotchi tomonidan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy asoslari sifatida mazkur institutni qo'llash mumkin bo'lgan jazo turlaridan birining belgilanishi hamda ushbu jazo turi uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lganligi, shartlari jazoning belgilangan qismini o'tagan hamda yetkazilgan zararining o'rnini qoplaganligi qayd etilgan.

Muallif O'zbekiston jinoyat qonunchiligiga asosan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mahkumning huquqi yoki qonuniy manfaatimi degan munozarali savolga olimlarning (V.V. Geranin, Y.V. Grachev, F. Miruktamova, O.V. Makarov) fikrlari hamda ayrim xorijiy davlatlar tajribalari yuzasidan qiyosiy-huquqiy tahlillarga asoslanib, mahkumlarning huquqi qonuniy manfaat bilan ifodalanishi, uning mohiyati iltimosnoma berish orqali amalga oshirilishi, shuningdek, sud iltimosnomani ko'rib chiqishda ijobiy qaror qabul qilish shart emas ekanligini qayd etadi.

Dissertant jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashda eng kam o'talishi lozim bo'lgan muddatni, ya'ni jazo muddati olti oydan kam bo'lishi mumkin emasligini belgilashni hamda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda sud tayinlangan umumiy muddatdan kelib chiqib hisoblashni, huquqshunos olimlar (V.N. Dodonov, I.D. Badamshin, M.X. Rustamboyev) va ayrim xorijiy davlatlar tajribasi misolida va ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 78 foiz mazkur fikrni qo'llab-quvvatlashiga tayanib, qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bobning *“Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat qilish samaradorligini oshirish choralarining jinoiy-huquqiy tahlili”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida jazoni o'tashdan

muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumlar ustidan nazoratning tashkiliy-huquqiy asoslaridagi muammolari, uning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati, nazoratning samaradorligiga erishish chora-tadbirlariga bag'ishlangan.

Dissertant tomonidan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish uning qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda katta o'rin tutishi, afsuski, bu masalada ya'ni shartli ozod qilingan mahkumlar xulq-atvori ustidan to'liq nazorat yo'qligi, umumiy profilaktik tadbirlarni amalga oshirish bilan cheklanayotganligi sababli, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar tomonidan jazoning o'talmagan muddati davomida 2022-yilda 108 ta, 2023-yilda 4,4 foizga oshib, 113 ta, 2024-yilning 10 oyi davomida 22,9 foizga oshib, 140 ta holatda qayta jinoyat sodir etilganligi o'rganilgan. Qolaversa, sodir etilgan qayta jinoyatlarning 60 foizi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Huquqshunos olimlar (Q.R. Abdurasulova, S. Niyozova, N.A. Simaginoy, O.A. Pilipenko) va biz mahkumning xulq-atvori ustidan nazoratning o'rnatilishi ijobiy natija berishligini ta'kidlaymiz. Ushbu fikrni so'rovnomada qatnashgan amaliyotchi xodimlarning 81,1 foizi ma'qullagan. Ayrim xorijiy davlatlar tajribasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs bilan davlat o'rtasida jinoiy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan nazorat turlari mavjudligi ko'rsatilgan. Shu bois shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganda, basharti bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud tomonidan jazoning o'talmagan qismi davomida mahkumga nisbatan taqiq (cheklash) yoki majburiyatlarni yuklash orqali yechim taklif etilgan.

Bundan tashqari, Yevropa Kengashi vazirlar qo'mitasining "Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risida"gi tavsiyalarida (2003-yil) jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi davomida mahkumning zimmasiga bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlarni yuklash va uning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish, jamiyatda o'rnatilgan qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash orqali jazo maqsadiga erishish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga va jinoyatchilik dinamikasini kamaytirishga xizmat qiladi degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, agar mahkum jazoning o'talmagan qismi davomida zimmasiga yuklatilgan taqiq (cheklash) yoki majburiyatlarni rasmiy ogohlantirishga qaramay bir necha bor buzgan bo'lsa, sud uning xulqi-atvori ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni bekor qilish va o'talmagan jazo muddatini o'tashi haqidagi masalani ko'rib chiqishi mumkinligi taklif etilgan.

Tadqiqotchi ichki ishlar organlarining probatsiya xizmati tomonidan muddatidan ilgari shartli ozod etilgan shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish zarurligini aniq belgilash muhimligini ta'kidlagan. Ushbu yondashuvning asoslanishi ba'zi xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Avstriya, Buyuk Britaniya, Fransiya) erishilgan ijobiy natijalar hamda so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 64 foizi mazkur taklifni qo'llab-quvvatlagani bilan izohlanadi.

Tadqiqotchi probatsiya xizmati hisobidagi shaxslarning (2019-2024-yillar) o'rtacha 25 foizi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar hissasiga to'g'ri kelishi, probatsiya xizmati xodimlarining har 10 tadan 3 tasi faqat

ushbu toifadagi shaxslarni nazorat qilib kelayotganligi, biroq nazorat shakli hisobga olish va hisobdan chiqarish tadbirlarini amalga oshirish bilan cheklanayotganligi sababli 36,2 foiz yoki 1080 nafar shaxsning bandligi ta'minlamaganligi, shundan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan 689 nafari jinoyat sodir etish xavfi yuqori toifadagi shaxslar ekanligi bilan izohlab, bu kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashda "Probatsiya to'g'risida"gi qonunda ijro etuvchi organga mahkumni ijtimoiy moslashtirishda ko'maklashish vakolatlarini berish orqali xulq-atvori ustidan nazorat samaradorligiga erishishligini asoslab bergan.

Dissertatsiyaning **"Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish"** nomli uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilikni optimallashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqib ayrim xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi va xalqaro darajada tavsiya qilinadigan va belgilangan qoidalarni o'z ichiga olgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston jinoyat qonunchiligining bir qator institutlari tahlil qilinib, ushbu institutni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *"Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish"* deb nomlanib, mazkur paragrafda jazoni o'tayotgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirishga oid qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash keskin ravishda oshganligi, ya'ni 2020-yilga nisbatan 2024-yilda 698 marotabaga yoki 624,8 foizga oshgani, biroq uning qo'llanilishi muttasil ravishda ortib borishi bilan emas, balki uning samaradorligi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan.

